

TEXNIK TAFAKURNI OSHIRISHDA TURLI HIL METODLAR ORQALI TAJRIBA SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH

Rahimova Naima Sobirjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Talim tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim) 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7727784>

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologik ta'limning tadqiqot jarayonida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Texnologik ta'lim, tajriba-sinov, texnik tafakkur, qiyosiy tahlil, statistik ko'rsatkichlar.

KIRISH: O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy modeli davlatimizning istiqbolli taraqqiyotini taminlovchi asosiy omillardan biri sifatida jahon ommasi tomonidan etirof etilmoqda. O'z navbatida «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ning qimmati unda har bir shaxsni jamiyat ehtiyojiga javob beruvchi kasb egasi qilib tarbiyalashga asosiy etibor qaratilganligi bilan belgilanadi. Ushbu asnoda pedagogik jarayonlarni, ilmiy tadqiqot faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishi talim islohotlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim mexanizm vazifasini o'taydi.

Demokratik tamoyillar asosida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lib borayotgan mamlakatimizda ta'limning barcha shakllari qatorida ta'limda tajriba-sinov ishlarini turli interaktiv metodlar orqali tashkil etish ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omilidir.¹

Texnik tafakkurni shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini aniqlash uchun tajriba ishlarini olib borishda pedagogik texnologiyalar va interaktiv uslublardan foydalanish o'zining o'rinli samarasini ko'rsatadi. Misol uchun tajriba jarayonida shakllantiruvchi tajriba uslubi haqida aytadigan bo'lsak; shakllantiruvchi tajriba - sinov ishlarini olib borish chog'ida biz zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, yaxshi natijalarga erishish kerakligiga alohida e'tibor qaratdik. Bunda talabalarning texnologik ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati va kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda, ijodiy tashkil etishi lozim degan tamoyilga asoslandik. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar musiqa darslarida:

- ✓ *ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishi;*
- ✓ *o'quvchilarning o'zlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni tarkib toptirishi;*
- ✓ *o'quvchilarning musiqiy bilimlarni puxta egallashini ta'minlashi;*
- ✓ *o'quvchilarda Texnik tafakkurini shakllantirishning natijasini aniqlash;²*

Qolaversa texnik tafakkur yuzasidan mustaqil, erkin fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi zarurligi tajriba - sinov ishlarimizning vazifasi qilib belgilandi.


¹ Jo'raev N.O. va b. Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent "Turon zamin ziyo" 2015.

² Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tadqiqotchilik ko'nikmalarining o'rne muhim. Bularga nazariy o'rganish, kuzatish, muammoni qo'ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tajriba o'tkazish, tajriba natijalarini olish, farazga nisbatan tajriba natijasini taqqoslash, nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, amalda qo'llab ko'rish kabilar bilan bog'liq ko'nikmalar kiradi.³ Aytilganlarning ba'zilari fan asoslarini o'rganishda, ba'zilari amaliyot jarayonida, yana boshqalari izlanish ishlari orqali shakllanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining faoliyatida, muammoni qo'yish uchun tadqiqot vazifasi birinchi o'ringa o'tishi maqsadga muvofiq, chunki unda bajariladigan ishning maqsadi va unga bo'lgan ehtiyoj o'z aksini topadi.

Tadqiqotimiz tajribasi natijalariga kelsak, quyida natijalar jadval ko'rinishida keltirilgan:

Baholar	Tajriba guruhi	Sinov guruhi
5	8	4
4	9	3
3	3	5
2	0	8



Mamalakatimizdagi ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim jarayonini tashkil etish muammolari tahlili uning uslubiy-pedagogik masala sifatida o'zining to'laqonli yechimini topmaganligini ko'rsatdi. Bu yo'nalishning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun o'qitishga eng zamonaviy pedagogik tajribalarni qo'llash uslublarini ishlab chiqish, bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash, ularni ta'lim tizimiga joriy qilishning samarali shakllarini ishlab chiqish zarur.

³ Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent 2007.

Islahotlar tufayli texnologik ta'lim tizimini ilg'or pedagogik tajribalarga asoslangan ishlanmalar bilan ta'minlanish darajasi tobora yaxshilanib bormoqda. Bundan kelib chiqqan holda talabalarni texnik tafakkurini shakllantirishni keng yo'lga qo'yish lozim. Bu albatta boshqa sohalarda ham o'zining ijobiy ta'siri bilan ahamiyatlidir.

References:

1. Sharipov Sh. Kasb ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning uzluksizligi. Toshkent. "Fan" nashriyoti, 2005.
2. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent 2007.
3. Jo'raev N.O. va b. Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent "Turon zamin ziyo" 2015.
4. Kharatova, S. K., & Ismailov, T. X. O. G. L. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713-718.